

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARIDA AQLIY TARBIYANI  
RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDAGI  
SAMARALI METODLARI**

*Abduxoliqova Dilbarxon Solijon qizi*

*Qo‘qon Universiteti Andijon Filiali*

*boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1- bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida aqliy tarbiyani rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari va samarali metodlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada o‘qituvchilarga ta’lim jarayonida o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalanilishi mumkin bo‘lgan innovatsion metodlar, shu jumladan, loyiha usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar tavsiflanadi.

**Kalit so‘zlar:** Aqliy tarbiya, intelektual ko‘nikma, ilm-fan, tabiiy fanlar, mustaqil fikrlash, qobiliyat.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются инновационные подходы и эффективные методы развития интеллектуального воспитания у учеников начальной школы. В статье описываются инновационные методы, которые могут быть использованы учителями для развития интеллектуальных способностей учащихся в процессе обучения, включая проектные методы и современные педагогические технологии.

**Ключевые слова:** Умственное воспитание, интеллектуальные навыки, наука, естественные науки, независимое мышление, способность.

**Abstract:** In this article, innovative approaches and effective methods for developing intellectual education in primary school students are discussed. The article describes innovative methods that can be used by teachers to develop students' intellectual abilities in the educational process, including project-based methods and modern pedagogical technologies.

**Keyword:** Mental education, intellectual skills, science, natural sciences, independent thinking, ability.

Aqliy tarbiya shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, uni turmush va mehnatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi. Aqliy tarbiya bilimlarni to‘plash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarni taqposlash hamda tasniflash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi. Aqliy tarbiya vazifasi intellektual ko‘nikmalar, ya’ni har qanday fanni o‘rganishda qo‘llaniladigan umumiyl o‘quv ko‘nikmalarini — o‘qish, tinglash, o‘z fikrini og‘zaki bayon etish, yozish, manba bilan ishlash, mustaqil ishslash malakalarini, shuningdek biror fanni egallash bo‘yicha zarur bo‘lgan maxsus ko‘nikmalar chizma, xaritalarni

o‘qiy bilish, ularning natijalarini chiqara olishni egallahdan iborat. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ya’ni bolalarga olam ilmiy manzarasi, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlarini tushuntirish ham Aqliy tarbiyaning muhim vazifasidan biridir. Bunda bolalar hayotining dastlabki yilidayoq atrofni o‘rab turgan barcha narsalar bilan tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega. Aqliy tarbiya ta’lim, o‘yin, mehnat jarayonida, hayotiy vaziyatlarni hal etish, kattalar va tengdoshlar bilan bo‘lgan muloqotda, ommaviy axborot vositalari orqali olinadigan axborotlarni qabul qilish va o‘zlashtirishda ro’y beradi.

Aqliy tarbiya shaxsda tabiat, jamiyat, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni hosil qilish, bilish qobiliyati, tafakkur, ilmiy dunyoqarashni shakillantirish jarayoni bo ‘lib, u yuksak ma’naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda yetakchi orin tutadi. Aqliy tarbiya o ‘quvchilarni ilm-fan, texnika va texnalogiya sohasida erishilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlarda xabardor qilish, ijtimoiy va tabiiy fanlar bo ‘ yicha bilimlarni berish orqali ularda tafakkur, dunyoqarashni rivojlantirish maqsadini amalga oshirishga yo’naltiriladi.

### **Aqliy tarbiya vazifalari**

- o‘quvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
- o‘quvchilarda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga ongli munosabatni qaror toptirish.
- o‘quvchilarda mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko’nikmalarini tarkib toptirish.
- o‘quvchilarda o’z bilimlarini doimiy boyitib borishga intilish tuyg’ularini shakllantirish.
- o‘quvchilarda bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrplash, ijodiy tafakkur yuritish, o’z fikrini asoslash, mavjud malumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hujzolar) ni rivojlantirish.
- o‘quvchilarga zamonaviy bilimlarni berish asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Tarbiyani samarali yo’lga qo’yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini-tarbiya jarayonining manbasini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bir so’z bilan aytganda tarbiya jarayoni-har bir insonning hayotda yashashi (umumiyl faoliyat, ta’lim, tarbiya) jarayonida orttigan saboqlari va intellectual va o’zgalarga berish jarayonidir. Tarbiya jarayonida ichki va tashqi qarama-qarshiliklar mavjud bo’lib, u bevosita tarbiyalanganlik darajasiga bog’liq bo’ladi. Tarbiyada o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo’ladi. Bu jihat unitilsa, qarama-qarshiliklar kuchayadi. Boshlang‘ich sinflarda aqliy tarbiya ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo’lib, o‘quvchilarning fikrplash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu bosqichda to‘g‘ri metodlarni qo’llash natijasida bolalar atrof-muhitni

chuqur tushunish, mustaqil tahlil qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Aqliy tarbiyani rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va samarali metodlar. Zamonaviy pedagogikada innovatsion yondashuvlar orqali o‘quvchilarning aqliy rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan bir qancha samarali metodlar ishlab chiqilgan. Ulardan eng asosiyлari quyidagilardan iborat:

### **Interfaol ta’lim metodlari**

Bu metodlar o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan usullar: "Aqliy hujum" (Brainstorming) – o‘quvchilarning muammolarni tezkor hal qilish va kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi; Klaster usuli – mavzular bo‘yicha fikrlarni tizimli joylashtirish va tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Munozara (Debate) – tanqidiy fikrlash va mulohazalar bildirish qobiliyatini oshiradi.

### **Muammoli ta’lim**

Bu metod o‘quvchilarga mustaqil izlanish, tahlil va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. O‘qituvchi dars jarayonida muayyan muammoni ilgari suradi va o‘quvchilar mustaqil yoki guruhlarda uni hal qilish yo‘llarini izlaydilar.

### **Texnologiyalardan foydalanish**

Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va ularning bilim olish jarayonini interaktiv holga keltirish mumkin. Quyidagi texnologik yondashuvlar samarali hisoblanadi: Elektron darsliklar va mobil ilovalar – o‘quv materiallarini vizual va interaktiv shaklda taqdim etish orqali bolalarning tushunish qobiliyatini oshiradi; O‘yinli ta’lim platformalari (Kahoot, Quizizz) – o‘quvchilarni o‘yin orqali bilim olishga rag‘batlantiradi. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim dasturlari – o‘quvchilarning individual qobiliyatlariga moslashtirilgan ta’limni ta’minlaydi.

### **Loyihaviy ta’lim**

Bu metod o‘quvchilarning mustaqil izlanish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar jamoaviy yoki individual loyihalar ustida ishlash orqali qulay.

### **Aqliy tarbiyaning asosiy maqsadlari**

O‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, mantiqiy tafakkur va kuzatuvchanlikni oshirish va yangi bilimlarni qabul qilish va ulardan amaliy foydalanishdan iborat.

### **Aqliy tarbiyaning vositalari va usullari**

Ta’lim jarayoni – bilimlarni ongli o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash orqali rivojlanadi. Mustaqil fikrlash mashqlari – muammoli savollar, bahslar, masalalar

yechish,o‘qish va izlanish – ilmiy va badiiy asarlar orqali tafakkurni shakllantirish,I nnovatsion texnologiyalar – interaktiv ta’lim, raqamli texnologiyalar va vizual vositalar yordamida bilim berishdir.

**Aqliy tarbiya nazariy asoslari:** Jean Piaget – bolaning kognitiv rivojlanish bosqichlarini o‘rganib, fikrlash qobiliyatining qanday rivojlanishini tushuntirgan. Lev Vygotsky – ta’lim va tafakkur rivojlanishida ijtimoiy muhit va muloqotning ahamiyatini ta’kidlagan. John Dewey esa ta’lim jarayoni orqali fikrlash qobiliyatini rivojlantirish g‘oyasini ilgari surgan. Aqliy tarbiya insonning kelajakda muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu jarayon davomida o‘quvchining bilish faolligi, tanqidiy tafakkuri va muammolarni hal qilish qobiliyati shakllanadi. Shuning uchun ta’lim tizimi va pedagoglar aqliy tarbiyani rivojlantirishga alohida e’tibor berishlari lozim.

**Xulosa:** Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida aqliy tarbiyani rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Innovatsion yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida interfaol o‘qitish usullari, texnologik vositalardan samarali foydalanish, muammoli ta’lim va ijodiy yondashuvning o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, loyihaviy va o‘yinli ta’lim metodlarining qo‘llanilishi o‘quvchilarning mustaqil izlanishlari va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga katta hissa qo‘sishi mumkin. Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda aqliy tarbiyani rivojlantirishning innovatsion usullari o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga imkon beradi. Kelgusida ushbu metodlarning amaliyotga joriy etilishi ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.S. Abdullayeva . ” Umumiy pedagogika “ Innavatsiya- ziyo Toshkent. (2022)
2. G. B Nuraliyeva, G. A. Berdialiyeva. Umumiy pedagogika va psixalogiya “ o‘quv qo ‘llanma Ziyo-nashr manba. ( 2023)
3. I. G‘ofurov, Aqliy tarbiya va uni shakllantirish usullari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.(2020)
4. D. Axmedova, Pedagogik psixologiya: Aqliy tarbiya masalalari. Samarqand: SamDU nashriyoti. (2021)
5. L.S.Vygotsky, Thought and Language. Cambridge, MA: MIT Press. (1987)
6. J. Piaget, . The Origins of Intelligence in Children. New York: Norton. (1952)